



QORAQALPOG'ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING O'ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

E-mail: xudayarovamuxabbat1976@gmail.com

Buranova Shoxista Menglibayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Yusupova Gulara Ataxanovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sultanova Aydin Menlibayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog'iston hududidagi ekklezionimlarning o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlari o'r ganilgan va ilmiy asosda tahlil etilgan. O'r ganilayotgan hududdagi antroponomilar asosida hosil qilingan ekklezionimlar, oykonimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar, etnonimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar, ijtimoiy tabaqa, kasb-hunar, mashg'ulot nomlarini bildiruvchi so'zlar birikuvidan yasalgan ekklezionimlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ekklezionimlar, masjid nomlari, leksik-semantik, toponimiya, onomastika, madaniyat, Qoraqalpog'iston.

Аннотация: В статье на научной основе изучаются и анализируются уникальные лексико-семантические особенности экклезионимов Каракалпакстана. Проанализированы экклезионимы, образованные на основе антропонимов изучаемой территории, экклезионимы, образованные на основе ойконимов, экклезионимы, образованные на основе этнонимов, экклезионимы, образованные из сочетаний слов, обозначающих названия социальных классов, профессий, занятий.

Ключевые слова: экклезионимы, названия мечетей, лексико-семантика, топонимия, ономастика, культура, Каракалпакстан.

Annotation: In the article, the unique lexical-semantic features of ecclesionyms in Karakalpakstan region are studied and analyzed on a scientific basis. Ecclesionyms formed on the basis of anthroponyms in the studied area, ecclesionyms formed on the basis of oikonyms, ecclesionyms formed on the basis of ethnonyms, ecclesionyms formed from combinations of words denoting the names of social classes, professions, occupations were analyzed.

Key words: ecclesionyms, mosque names, lexical-semantic, toponymy, onomastics, culture, Karakalpakstan.



KIRISH VA DOLZARBLIGI.

O‘z ma’naviyati va madaniyatini, milliy qadriyatlarini, ma’rifiy o‘ziga xosliklarini, uning insoniyat ravnaqi uchun tuhfa qilayotgan jami madaniy boyliklarini asrlar osha opichlab avlodlardan avlodlarga etkazgan va shu dorilomon zamonlarga yetkazib kela olgan tiganmas boylik – bu har bir xalqning o‘zligidir. Shu sababli ham, har bir xalqning yozma yodgorliklar tilidagi lisoniy boyliklarni o‘rganish va ilmiy tahlilini olib borish katta ahamiyatga ega.

Tilimizning lug‘at tarkibida atoqli otlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Nomshunoslik (onomastika) – tilshunoslikning atoqli otlarni o‘rganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohasidir. Tilimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan atoqli otlar majmuasi ulkan madaniy merosimiz, beba ho lisoniy boyligimizdir. Bular xalqimiz tafakkurining mevasi sifatida davrlar osha avloddan-avlodga, nasldan-naslga o‘tib, bizgacha etib kelgan nomlardir. Atoqli otlarni o‘rganish nafaqat o‘zbek tilshunosligi uchun, shu bilan birga tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlari uchun ham alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli otlari, toponimlari va etnonimiyasiga munosabat tubdan o‘zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma’naviyatining nodir merosi sifatida ham e’zozlanadigan va o‘rganiladigan bo‘ldi. Natijada o‘zbek onomastikasining tadqiq yo‘nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi. Mazkur maqola toponimning bir turi ekklezionimlarni o‘rganishga bag‘ishlanganligi bilan dolzarbdir.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Onomastika rivojlanishining zamonaviy bosqichiga diniy binolarning tavsiflanishi hamda bu nomlarning ilgari o‘rganilmaganagini e’tiborga molik.

Ekklezionim – toponimiya sohasi nomlari orasida alohida o‘rin tutadi. Mazkur nomlar toponimiya sohasida boshqa nomlarga nisbatan yaqinda olimlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Mustaqillikdan keyin diniy marosimlar o‘tkaziladigan joylar nomlariga onomatologiya tadqiqotchilarilari ilmiy qiziqishlar uyg‘ondi.

Ushbu ishning maqsadi diniy nomlarning holatini, zamonaviy onomastik tizimdagи o‘rnini aniqlashdir.

Onomatologiya tadqiqotchilarilari tomonidan diniy binolar nomlarining o‘ziga xosligi 1973 -yilda qayd etilgan va bu haqda A.V.Superanskaya: "Murakkab nomlarning maxsus toifasi obyektlar cherkovlar, monastirlar, ibodatxonalar, qurbongohlar nomlarini ifodalaydi. Belgilangan obyektning murakkabligini



hisobga olgan holda, antroponimlar ushbu turdagি nomlar, ularning keyingi rivojlanishi ikkala toponimning ham asosiga aylandi” deb yozgan.

Fan rivojlanishining hozirgi bosqichida olimlar-onomatologlar keng tarqalgan til birliklari sifatida qaraladigan bu tizim elementlari o‘rgana boshlaydi. Shunday qilib, rus tadqiqotchisi E.P.Arinina diniy binolar nomlarining o‘ziga xosligi, tilning umumiy onomastik tizimidagi o‘rnini, ekklezionimlarning o‘ziga xos semantik va strukturaviy xususiyatlari, bu sohada ma’lumotlar yetishmasligini tushuntiradi [1].

TADQIQOT NATIJALARI.

Mamlakatimizda diniy tashkilotlar hech qanday tazyiqlarsiz, cheklashlarsiz, emin-erkin faoliyat ko‘rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning soni o‘sganini ham qayd etish zarur. Xusan, 1990-yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1991- yilda 179 taga (146 islomiy va 33 noislomiy) etdi, 2007- yilning yanvariga kelib esa, ularning soni 2227 tani (2046 ta islomiy, 181 ta noislomiy) tashkil etdi. Ulardan eng yirigi O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O‘rta Osiyo Eparxiysi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To‘liq Injil xristianlari cherkovi, O‘zbekiston Bibliya jamiyati. Shuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan [3].

Diniy marosimni ado etish uchun to ‘planiladigan joyning, jumladan machit, cherkov, monastir va b. atoqli oti ekklezionim [2] deyiladi.

Ekklezionimlar sun’iy nominatsiyaning yorqin namunasidir, obyektga maqsadli nom berish, bu nomni kiritish va o‘rganishni o‘z ichiga oladigan umumiy leksikadir.

Ekklezionimlarning lug‘aviy ma’nosiga lingvokulturologik ma’no kiradi. Mazmuniga ko‘ra, kishi ismlari, ularning fazilatlari, ma’naviy qadriyatlar, hurmati aks ettiriladi.

Ekklezionimlar boshqa turdagи onimlar uchun so‘z yasash asosi bo‘lib xizmat qiladi (urbanonimlar, oykonimlar va boshqalar).

Qoraqalpog‘istondagi ekklezionimlarni quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Antroponimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar;



2. Antroponim va ijtimoiy tabaqa nomlarini bildiruvchi so‘zlar birikishidan vujudga kelgan ekklezionimlar;
3. Oykonimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar;
4. Etnonimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar;
5. Ijtimoiy tabaqa, kasb-hunar, mashg‘ulot nomlarini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan yasalgan ekklezionimlar.

1. Antroponimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar. Bu guruhga quyidagi ekklezionimlarni kiritish mumkin: **Tilau baba jome masjidi** (Xo‘jayli tumani), **Muhammad Karim jome masjidi** (Xo‘jayli tumani), **Badr ota jome masjidi** (Beruniy tumani) **G‘oib ota jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani) **Qo‘chqar ota jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Muhammad Norinjoniy jome masjidi** (Ellikqal‘a tumani), **Abdullo Norinjoniy jome masjidi** (Ellikqal‘a tumani), **Quziboy bobo jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Bobo Rustam jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Taqmoq ota jome masjidi** (Mo‘ynoq tumani), **Muhammad Murod jome masjidi** (Taxiyatosh tumani), **Sulton Uvays bobo jome masjidi** (Beruniy tumani), **Safo jome masjidi** (Ellikqal‘a tumani), **Hakim Sulaymon jome masjidi** (Qo‘ng‘irot tumani) kabi.

2. Antroponim va ijtimoiy tabaqa nomlarini bildiruvchi so‘zlar birikishidan vujudga kelgan ekklezionimlar. Bu guruhga quyidagi ekklezionimlarni kiritish mumkin: **Yerejeb biy jome masjidi** (Nukus shahri), **Allahberdi aziz jome masjidi** (Nukus shahri), **Imom eshon Muhammad jome masjidi** (Nukus shahri), **Shayx Abbas jome masjidi** (Beruniy tumani), **Mulla Sa‘dulla jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Masharif Aqsaqal jome masjidi** (Ellikqal‘a tumani), **Yakub Eshon jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Yusup Eshon bobo jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Abdijamil Eshon jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Syuyin Eshon jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Mag‘zan Eshon jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Kamal axun jome masjidi** (Nukus tumani), **Iskandar va Alauatdin Eshon jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Idris Eshon jome masjidi** (Qorao‘zak tumani), **Imitdin Eshon jome masjidi** (Nukus tumani), **Yoshim axun jome masjidi** (Qanlikul tumani) kabi.

3. Oykonimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar. Bu guruhga quyidagi ekklezionimlarni kiritish mumkin: **Yambash qal‘a jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Miskin baba jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **To‘rtko‘l jomi jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Shoraxan jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Xalqabad jome masjidi** (Kegeyli tumani), **Xan Shimbay jome masjidi** (Chimboy tumani), **Shumanay jome masjidi** (Shumanay tumani) kabi.



4. Etnonimlar asosida hosil qilingan ekklezionimlar. Bu guruhga quyidagi ekklezionimlarni kiritish mumkin: **Nog‘ay Eshon bobo jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Xalq jome masjidi** (Taxtako‘pir tumani) kabi. **5. Ijtimoiy tabaqa, kasb-hunar, mashg‘ulot nomlarini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan yasalgan ekklezionimlar.** Bu guruhga quyidagi ekklezionimlarni kiritish mumkin: **Darvesh Eshon jome masjidi** (Beruniy tumani), **Qarshili xo‘ja jome masjidi** (Amudaryo tumani), **Xoji Eshon jome masjidi** (Amudaryo tumani) **Ketmenshi baba jome masjidi** (Taxiatosh tumani), **Sari Eshon jome masjidi** (Taxiatosh tumani), **Imom Eshon jome masjidi** (Nukus tumani), **Eshon qala jome masjidi** (Kegeyli tumani) **Pirim Eshon bobo jome masjidi** (Xo‘jayli tumani) kabi.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **Xayrli baba jome masjidi** (Beruniy tumani), **Malladunli jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Muntik baba jome masjidi** (To‘rtko‘l tumani), **Bibimushkul Kushod jome masjidi** (Ellikqal‘a tumani) kabi ekklezionimlar ham mavjud.

Bibimushkul Kushod – Mushkul kushod – (“mushkul” – qiyin, “kushod” – ochuvchi) qiyinchiliklarni ochuvchi, mushkullik va chigalliklarni yechuvchi ma’nosini bildiradi. “Mushkul kushod” va “Bibiseshanba” – mushkullarni oson qilish maqsadida qilinadigan xurofot amallardan hisoblanadi. Hozirda ba’zi viloyatlardagi asosan ayollar o‘rtasida joriy bo‘lib turgan marosim. Mushkulni kushod qiluvchi ya’ni, bandaning boshiga tushgan qiyinchilikni yengil qiluvchi, mushkul ishlarni kushoyish aylovchi zot yagona Alloh taoloning o‘zidir. Shuning uchun, «Bibi Mushkulkushod» yohud “Bibiseshanba” degan marosimlarni qilishning dinimizga mutlaqo aloqasi yo‘qdir[4].

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, ekklezionimlar xalq hayoti bilan uzviy bog‘liqligi, xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, madaniy, ma’naviy, ruhiy turushini aks ettirganligi bois toponimik lug‘atlar muhim ilmiy, amaliy, tarixiy, ma’rifiy ahamiyatga egadir. Shuning uchun turli xil maqsadlar va tamoyillar asosida toponimik lug‘atlar yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR:



1. Arinina E.P. Strukturnye osobennosti russkix ekklezionimov // Vestnik Samarskogo gosudarstvennogo universiteta. 2008. № 5/2 (64). S. 37-43.
2. Begmatov E.A., Uluqov N.M. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. Namangan, 2006. – 103 b.
3. <https://staff.tiiame.uz/>
4. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=860>
5. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O 'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(6), 54-56.
6. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O 'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 62-66.
7. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). "BOBURNOMA"-TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.
8. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. TDPU ILMIY AXBOROTLARI.
9. qizi Usanova, Q. M., & Xudayarova, M. (2023). O 'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 180-183.